

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№2

2026
fevral



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

*Elektron nashr, 38 sahifa.
2026-yil, fevral*

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR BANKLARIDA RISK-MENEJMENTNING TASHKILIY MODELLARI.....	26
Madaminov Bekzod Allayarovich	
“HUDUDGAZTA’MINOT” AJ DA AMALGA OSHIRILGAN LOYIHALAR SAMARASI	32
Shukurillaev Jahongir Botir o’g’li	

“HUDUDGAZTA’MINOT” AJ DA AMALGA OSHIRILGAN LOYIHALAR SAMARASI

Shukurillaev Jahongir Botir o‘g‘li

Toshkent kimyo-texnologiya institutimustaqil izlanuvchi

<https://orcid.org/0009-0008-5362-873>

Annotatsiya. Ushbu maqolada “Hududgazta’minot” AJ tomonidan amalga oshirilgan loyihalarning mazmun-mohiyati, ularning tarmoq barqarorligiga ta’siri, shuningdek, iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlik nuqtayi nazaridan natijalari kompleks tahlil qilinadi. Maqolaning asosiy maqsadi — mazkur loyihalar orqali gaz ta’minoti tizimida erishilgan amaliy yutuqlarni yoritish, ularni baholashning asosiy mezonlarini belgilash hamda kelgusida tarmoqda investitsion faollik va samaradorlikni yanada oshirish bo’yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat. Mazkur tadqiqot natijalari gaz ta’minoti sohasida strategik qarorlar qabul qilish, loyihalarning natijadorligini oshirish va xizmat ko’rsatish sifatini yanada yaxshilashda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: Sanoat, gaz, tabiiy gaz, ko‘mir, loyiha, zamonaviy prognozlash texnologiyalari, investitsion faoliyat, billing tizimi, iste’molchilar, tabiiy gaz hisobi, hisobdon, moliyalashtirish.

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the essence and significance of the projects implemented by JSC “Hududgazta’minot”, their impact on the stability of the sector, as well as their outcomes in terms of economic and social efficiency. The main objective of the article is to highlight the practical achievements attained in the gas supply system through these projects, to determine the key criteria for evaluating them, and to develop scientifically grounded proposals and recommendations aimed at further increasing investment activity and efficiency in the sector in the future. The results of this study have practical significance for making strategic decisions in the gas supply field, improving the effectiveness of projects, and further enhancing the quality of services.

Keywords: Industry, gas, natural gas, coal, project, modern forecasting technologies, investment activity, billing system, consumers, natural gas accounting, meter, financing.

Аннотация. В данной статье проводится комплексный анализ содержания и сущности проектов, реализованных АО «Hududgazta’minot», их влияния на устойчивость отрасли, а также результатов с точки зрения экономической и социальной эффективности. Основной целью статьи является освещение практических достижений, достигнутых в системе газоснабжения благодаря данным проектам, определение ключевых критериев их оценки, а также разработка научно обоснованных предложений и рекомендаций по дальнейшему повышению инвестиционной активности и эффективности в отрасли. Результаты настоящего исследования имеют практическое значение для принятия стратегических решений в сфере газоснабжения, повышения результативности проектов и дальнейшего улучшения качества предоставляемых услуг.

Ключевые слова: промышленность, газ, природный газ, уголь, проект, современные технологии прогнозирования, инвестиционная деятельность, биллинговая система, потребители, учет природного газа, счетчик, финансирование.

KIRISH

Hozirgi kunda iqtisodiyotning barqaror o’sishi va aholi turmush darajasini oshirishda energetika infratuzilmasini rivojlantirish, xususan, tabiiy gaz ta’minoti tizimini modernizatsiya qilish strategik ahamiyat kasb etmoqda. Tabiiy gaz nafaqat aholining ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish, balki sanoat, xizmat ko’rsatish va qishloq xo’jaligi tarmoqlarining uzluksiz faoliyatini ta’minlashda ham muhim resurs sifatida qaratiladi. Shu sababli gaz ta’minoti tizimidagi barqarorlik, texnik ishonchlilik, xizmat sifati va moliyaviy samaradorlik kabi masalalar davlat va jamiyat taraqqiyoti nuqtayi nazaridan dolzarb vazifalar qatoriga kiradi. Ayniqsa, uzluksiz ta’minotni yo’lga qo’yish, yo’qotishlarni kamaytirish, resurs sarfini optimallashtirish hamda iste’molchilarga qulay xizmat ko’rsatish mexanizmlarini joriy etish zamonaviy boshqaruv talablariga mos ravishda amalga oshirilishi zarur.

So’nggi yillarda mamlakatimizda energiya resurslarini tejash, tarmoqlarni raqamlashtirish va zamonaviy infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan islohotlar keng ko’lamda olib borilmoqda. Ushbu jarayonda gaz ta’minoti tarmog’i alohida o’rin egallab, ishlab chiqarishdan tortib iste’molchigacha bo’lgan zanjirda nazorat va boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish talab etilmoqda. Bunda gaz tarmoqlarini rekonstruksiya qilish, yangi gaz quvurlarini qurish, yuqori bosimli liniyalar va taqsimlash punktlarini yangilash, avariya holatlarining oldini olish tizimini kuchaytirish, texnik xizmat ko’rsatish sifatini oshirish kabi yo’nalishlar amalda juda muhim



hisoblanadi. Ana shu vazifalarni bajarishda “Hududgazta’minot” aksiyadorlik jamiyati tomonidan amalga oshirilayotgan loyihalar ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyati bilan ajralib turadi.

“Hududgazta’minot” AJ tizimida amalga oshirilgan loyihalar, odatda, tarmoq ishonchligini ta’minlash va aholiga xizmat ko’rsatishni yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan bo’ladi. Xususan, gaz quvurlarini modernizatsiya qilish, eski tarmoqlarni almashtirish, gaz bosimini barqarorlashtirish, hisob-kitob va nazorat jarayonlarini avtomatlashtirish, hisoblagichlarning zamonaviy turlarini joriy etish, debitor-kreditor munosabatlarini tartibga solish va to’lov intizomini mustahkamlash kabi chora-tadbirlar o’z samarasini ko’rsatmoqda. Shu bilan birga, loyihalarning texnologik tomoni bilan birga, ularning iqtisodiy samarasi ham muhim hisoblanadi. Chunki har qanday infrastruktura loyihasi o’z mablag’i, mehnat resursi va vaqt sarfi orqali amalga oshirilganidan so’ng, natija sifatida aniq ko’rsatkichlar: yo’qotishlar kamayishi, xizmat sifati oshishi, ta’minot uzluksizligi kuchayishi, avariya holatlari qisqarishi, iste’molchilar murojaatlarining kamayishi, resurslar tejallishi kabi omillarda namoyon bo’lishi lozim.

Hozirgi kunda energetik xavfsizlik, tabiiy gaz ta’minoti barqarorligi va resurslardan oqilona foydalanish har qanday mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotida hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Mamlakat iqtisodiyoti va aholi turmush sifatining uzluksizligi ko’p jihatdan energiya infratuzilmasining ishonchligiga bog’liq bo’lib, bu jarayonda gaz ta’minoti tarmoqlarini modernizatsiya qilish, yo’qotishlarni kamaytirish va xizmat ko’rsatish samaradorligini oshirish dolzarb vazifa sifatida namoyon bo’ladi. Shu ma’noda, Prezident Sh.M. Mirziyoyev energiya tejamkorligini ta’minlash va muqobil quvvatlardan foydalanishni kengaytirish masalalarini milliy iqtisodiyot barqarorligi bilan bog’liq ustuvor yo’nalish sifatida qayd etgan. [1]

Bugungi kunda gaz ta’minoti tizimining samaradorligini baholash faqat texnik ko’rsatkichlar bilan cheklanib qolmay, kompleks yondashuvni talab qiladi. Ya’ni loyihalar samarasini baholashda moliyaviy-iqtisodiy natijalar (xarajatlarni qisqartirish, tushumni oshirish, to’lov intizomini yaxshilash), ijtimoiy natijalar (aholi uchun qulaylik, xizmat sifati, uzluksiz ta’minot), boshqaruv natijalari (raqamlashtirish, shaffoflik, monitoringning kuchayishi) hamda ekologik jihatlar (resurs tejamkorligi, yo’qotishlarni kamaytirish orqali samarali foydalanish) kabi mezonlarni o’zaro bog’liqlikda tahlil qilish zarur. Shu sababli “Hududgazta’minot” AJ misolida amalga oshirilgan loyihalar samarasini tahlil qilish, ularning natijadorlik darajasini ilmiy asosda baholash va amaliyot uchun muhim xulosalar chiqarish dolzarb tadqiqot vazifasi bo’lib qolmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

A.A. Konoplyanik neft-gaz loyihalarini moliyalashtirishda turli yondashuvlarni (qarz, xususiy kapital, konsorsium, davlat ishtirokidagi sxemalar) tahlil qilib, ayniqsa (loyiha moliyalashtirishi)ni yuqori kapitallab loyihalar uchun eng istiqbolli mexanizm sifatida ko’radi.[2]

N.M. Yermakova neft-gaz qazib chiqarish tarmog’iga xorijiy investitsiyalar kirishiga soliq rejimi barqarorligi, huquqiy kafolat va foyda repatriatsiyasi kabi omillar kuchli ta’sir qilishini ta’kidlaydi.[3]

Ye.A. Belousova neft-gaz loyihalarida investitsiya jozibadorligini oshirish uchun ssenariy tahlili, Monte-Carlo modellash, va risklarni hisobga olgan investitsion qaror qabul qilishni tavsiya etadi.[4]

M.A. Fayzullayev fikricha, neft-gaz tarmog’ida investitsiya jalb qilishning bosh maqsadi — infratuzilmani yangilash, konlarni o’zlashtirish, qazib olish samaradorligini oshirish va qayta ishlash quvvatlarini rivojlantirish orqali tarmoq raqobatbardoshligini ta’minlashdir. Ushbu yondashuvda investitsiya “kapital qo’yilma” emas, balki texnologik yangilanish va tarmoq xavfsizligini ta’minlovchi strategik resurs sifatida baholanadi.[5]

U.B. Muxammadiyev Neft-gaz korxonalarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda xorij tajribasini o’rganib, loyihalarni moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish (masalan, uzoq muddatli resurslar, institutsional investorlar, loyiha moliyalashtirishi) zarurligini ko’rsatadi. Bu yondashuvga ko’ra, tarmoqda loyiha moliyalashtirishi mexanizmlari qanchalik rivojlansa, investitsiya jalbi ham shuncha barqaror bo’ladi.[6]

M. Davlatov kabi tadqiqotchilar neft-gaz sohasida investitsiya faolligini oshirishda DXSh modeli muhimligini yoritib, davlat va xususiy sektor o’rtasida xatarlarni taqsimlash, samarali kontraktlash va uzoq muddatli kafolatlar loyihalar jozibadorligini oshirishini ta’kidlaydi. Bu yondashuv investitsiya muhitini yaxshilashda “institutsional mexanizm” sifatida qaraladi.[7]

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada qiyosiy tahlil hamda induksiya va deduksiya baholash usullaridan foydalanildi. Qiyosiy usuldan foydalanilib, soliq imtiyozlariga doir ma’lumotlar yuzasidan tahlillar amalga oshirildi va ilmiy xulosalar berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

“Hududgazta’minot” aksiyadorlik jamiyati O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-iyuldagi PQ-4388-son “Aholi va iqtisodiyotni energiya resurslari bilan barqaror ta’minlash, neft-gaz tarmog’ini

moliyaviy sog'lomlashtirish va uning boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori va O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2019-yilning 24-iyulidagi 4k-PO-son "Hududgazta'minot" AJ aksiyadorlik jamiyatini tashkil etish to'g'risida"gi buyrug'i asosida tashkil etilgan.

«Hududgazta'minot» AJ ning eng muhim vazifasi gazni iste'molchilarga yetkazib berish jarayonida, shu jumladan: mavjud gazni boshqarish punktlari va tarmoqlarini almashtirish, modernizatsiya qilish va rekonstruksiya qilish, barcha toifadagi iste'molchilar uchun tabiiy gazni monitoring qilish va hisobga olishning avtomatlashtirilgan tizimini to'liq joriy etish hisobiga tabiiy gaz yo'qotishlarini kamaytirish hisoblanadi.


O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-iyundagi "Tabiiy gaz va elektr energiyasini sotish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6010-son Farmonining ijrosini ta'minlash, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish orqali tabiiy gazni hisobga olish tizimini takomillashtirish, yo'qotishlarni bartaraf etish, shuningdek iste'mol qilingan tabiiy gaz uchun to'lovlarning o'z vaqtida va to'liq undirilishini ta'minlash maqsadida "Hududgazta'minot" AJ "Tabiiy gaz nazorati va hisobining avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish" loyihasini amalga oshirdi.

Loyiha doirasida elektron gaz hisoblagich uskunalarni hamda tabiiy gaz hisobi va nazoratining avtomatlashtirilgan tizimini harid qilish bo'yicha texnik sharti asosida 2020-yil 17-fevral kuni tender e'lon qilinib, uning natijalariga ko'ra, 2020-yilning 3-aprel kuni tender g'olibi deb "TEXNOPARK" MChJ aniqlandi hamda mazkur ishlab chiqaruvchi va "Hududgazta'minot" AJ o'rtalarida elektron gaz hisoblagichlarni va avtomatlashtirilgan tizimini yetkazib berish bo'yicha bosh shartnoma imzolandi. Ushbu loyiha bo'yicha jami 3 546 148 ta elektron gaz hisoblagichlar o'rnatilishi ko'zda tutilgan.

Loyiha doirasida jalb etilgan 542,4 mln dollar investitsiya mablag'lari hisobiga Respublika bo'yicha 3 667 415 ta xonadonlar ASKUG tizimi bilan qamrab olindi va tabiiy gaz aholi iste'molchilari Italiyaning "Terranova" kompaniyasi bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan yangi "ASKUG" billing tizimi hamda gaz ta'minoti korxonalarda "onlayn" rejimda masofadan nazorat qilish va to'lovlarni oldindan amalga oshirish (prepay) tizimi yo'lga qo'yildi.

Bundan tashqari, tizim joriy etilgan hududlarda istiqomat qilayotgan fuqarolarning iste'mol madaniyatini oshirish orqali tabiiy gazdan maqsadli hamda oqilona foydalanish yo'lga qo'yildi. Buning natijasida, uzoq vaqt kuz-qish mavsumida tabiiy gaz taqchilligi kuzatilgan iste'molchilarni barqaror tabiiy gaz bilan ta'minlash imkoniyati yaratilib, fuqarolarning ishonchi va roziligiga erishildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 30-martdagi 168-son qarori bilan tasdiklangan Loyihaning texnik-iqtisodiy asoslanishiga muvofiq, loyiha doirasida 603,0 mln. AQSh dollar investitsiya mablag'lari jalb etish belgilangan. Amalga oshirilgan ishlar natijasida jami 542,4 mln. AQSh dollar mablag'lar jalb etildi (1-rasm).



1- rasm. “Hududgazta'minot” AJ tomonidan “Tabiiy gaz nazorati va hisobining avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish” loyihasini moliyalashtirish manbalari.




“Hududgazta’minot” AJning mablag’lari evaziga Qibray, Zangiota va Toshkent tumanlarida; Tiklanish va taraqqiyot jamg’armasidan ajratiladigan kredit mablag’lari evaziga O’rtachirchiq, Chinoz, Yuqorichirchiq, Yangiyo’l va Karmana tumanlari hamda Toshkent, Andijon, Buxoro, Guliston, Jizzax, Namangan, Nukus, Samarqand, Termiz, Urganch, Qarshi, Kattaqo’rg’on, Qo’qon, Marg’ilon shaharlarida va boshqa qarzdorlik darajasi baland bo’lgan hududlarda; “SACE” davlat kafolati ostidagi xorijiy krediti hamda maxalliy banklar mablag’lari hisobidan Respublikaning boshqa tuman va shaharlariga tizimni o’rnatish ishlari amalga oshirildi.

Loyiha amalga oshirilgach elektron gaz hisoblagichdagi qarzdorlik uchun iste’molchini 24 soat davomida gaz ta’minotidan vaqtinchalik to’xtatish bo’yicha o’rnatilgan cheklovlar qayta dasturlanib, cheklov faqat kunning soat 07:00 dan 13:00 gacha oralig’ida amalga oshirilishga erishildi va iste’molchida qarzdorlikni kunning ikkinchi yarimida to’lash imkoniyatini yaratildi.

Shuningdek, qarzdorlik qoplangandan so’ng elektron gaz xisoblagich uskunasi tarmoqqa qayta ulash jarayonlarini soddalashtirish maqsadida “Texnopark” MChJ bilan birgalikda elektron gaz xisoblagich uskunasi dasturiy ta’minotini optimallashtirish choralari ko’rildi.

Iste’molchilarga qo’shimcha qulayliklar yaratish maqsadida, hisoblagichni tarmoqqa qayta ulash jarayonini soddalashtirilib, hisoblagichlarning 8 ta funksiyasi 3 taga optimallashtirildi, shuningdek, loyihani amalga oshirish “logistika — o’rnatish — sifat nazorati — monitoring” printsipli asosida tizimli yo’lga qo’yildi (2-rasm).



2- rasm. Tabiiy gaz nazorati va hisobining avtomatlashtirilgan tizimining ishlash tamoyili.

Jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushayotgan murojaatlarni o’z vaqtida qabul qilish va muammolarni tezkor bartaraf etish maqsadida, “Hududgazta’minot” AJ qoshida 1104 qisqa raqamli “Call center”lar faoliyati yo’lga qo’yildi hamda istemolchilarga qo’shimcha qulayliklar yaratish maqsadida, viloyat hududlaridan qo’ng’iroq amalga oshirilgan taqdirda to’g’ridan-to’g’ri ushbu hududda tashkil etilgan “Call center”ga ulanish imkoni yaratildi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

So’nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko’lamli islohotlar doirasida gaz ta’minoti tizimini raqamlashtirish va modernizatsiyalashga katta e’tibor qaratilmoqda. Neft-gaz sanoati mamlakatimiz iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlaridan. O’zbekiston dunyo mamlakatlari orasida tabiiy gaz qazib olish bo’yicha yetakchi o’rinlardan birida turadi. Istiqlol yillarida mamlakatimiz neft va gaz sanoatida tub o’zgarishlar amalga oshirildi. Mamlakatimiz gaz, polietilen va qayta ishlangan neft mahsulotlarining yirik eksportchisiga aylandi. Iqtisodiyotni erkinlashtirish, uning barcha sohalarini, jumladan, neft-gaz tarmog’ini yanada rivojlantirishga xizmat qiladigan qulay sarmoyaviy muhit yaratishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Sohada yangi inshootlarni barpo etish, mavjudlarini zamon talablari asosida rekonstruktsiya hamda modernizatsiya qilish ishlari jadal davom etmoqda. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, ichki bozorda mahalliy mahsulotlar ulushini ko’paytirish, mahalliyashtirishni kengaytirish, kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish uchun qulay sharoit, imkoniyat va imtiyozlar yaratilmoqda. Xulosa o’rnida shuni aytishimiz mumkinki, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining



2020-yil 24-sentyabrdagi “Tabiiy gaz nazorati va hisobining avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish” loyihasini amalga oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4840-son qarori ijrosi ta’minlinishi natijasida gaz sanoatida:

1. Texnologik jarayonlardagi yo‘qotishlar 10,3 mln kub metrqa qisqartirildi hamda 200 ta yangi ish o‘rinlari yaratildi va 16 xil turdagi xalqaro standartlarga javob beruvchi material va zamonaviy qurilmalar jalb qilindi.

2. Iste’molchilarga tabiiy gazni yetkazib berishda hududlar kesimida tabiiy gazning aniq hisob-kitobini (balansini) yuritish maqsadida, respublika tuman va shaharlari 1 026 taga ajratilib, chegara quvurlariga 1 735 ta elektron hisoblagichlar o‘rnatildi hamda “onlayn” monitoring qilish imkonini beruvchi avtomatlashtirilgan tizim ishga tushirildi.

3. Tizimga loyiha doirasida 542,4 mln dollar investitsiya mablag‘lari jalb etildi.

4. Tabiiy gazdan maqsadli hamda oqilona foydalanishga erishildi.

“Hududgazta’minot” AJda tabiiy gaz nazorati va hisobining avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish bu samaradorlikni oshirish, xato risklarini kamaytirish va resurslarni optimallashtirish uchun muhim qadam hisoblanadi. Ushbu loyihani amalga oshirish jaryonida jamiyat tomonidan quyidagi ishlar amalga oshirildi:

1. Tizimni rejalashtirish - maqsadlar belgilash, tizimdan kutilayotgan natijalarni aniqlash (masalan, real vaqtda nazorat qilish, hisobot berish).

2. Texnik asos - sensorlar va o‘lchov qurilmalari, gazning bosimi, temperaturasi, og‘irligi va boshqa parametrlarni kuzatish uchun yuqori sifatli sensorlarni o‘rnatish.

3. Ma’lumotlarni uzatish - kommunikatsiya protokollari, o‘lchov natijalarini markazlashtirilgan bazaga uzatish uchun turli protokollar simsiz aloqa texnologiyalari usullarini joriy qilish.

4. Ma’lumotlarni qayta ishlash - analitik platformalardan olingan ma’lumotlarni tahlil qilish, xulosalar chiqarish va prognozlash uchun maxsus dasturlar. Xato aniqlash algoritmlari natijalardagi xatolarni avtomatik aniqlash dasturi.

5. Kuzatish va nazorat - real vaqtda nazorat tizim orqali ma’lumotlarni ongli vaqtda kuzatish va tahlil qilish. Ogohlantirish mexanizmi xatolar yoki nomutanosibliklar yuzaga kelganda tizimning avtomatik ogohlantirishi.

6. Tizimni integratsiya qilish.

7. Trening va xulosa. Tizimdan foydalanish uchun mutaxassislarni tayyorlash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Shavkat Mirziyoyev 2025-yil 26-mart kuni energiya resurslarini iqtisod qilish, iste’mol samaradorligini oshirish hamda ulardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari bo‘yicha yig‘ilish.
2. Конопляник А.А. «Основные виды и условия финансирования инвестиционных проектов в нефтегазодобывающей промышленности». РГУ нефти и газа им. И.М. Губкина, 2009.
3. Ермакова Н.М. Привлечение иностранных инвестиций в нефтегазодобывающую промышленность РФ. Проблемы рыночной экономики, 2019
4. Белоусова Е.А. Методы повышения инвестиционной привлекательности проектов в нефтегазовой отрасли России. СйберЛенинка, 2025.
5. Fayzullayev M.A. O‘zbekiston neft-gaz sanoati rivojlanishida chet el investitsiyalarining tutgan o‘rni. CyberLeninka, 2022.
6. Muxammadiyev U.B. O‘zbekiston neft-gaz korxonalarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish bo‘yicha xorij tajribasini o‘rganish. CyberLeninka / Zenodo, 2024.
7. Davlatov M. Neft-gaz sohasida davlat-xususiy sherikchilik modeli va investitsiya faolligi. inLibrary.uz / konferensiya to‘plami, 2024–2025.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100